

O'ZBEKISTONNING JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO
MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI

Akramov Izzatillo Murodjon o'g'li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti 4-bosqich Iqtisodiyot 302- guruh talabasi
Telefon raqam:+998999913465 E-mail:akramovizzatillo626@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda joriy yilning birinchi choragidagi tashqi savdodagi import va eksport sohalaridagi o'zgarishlar borasida so'z yuritilingan. Hamda maqolada mamlakatimizning import va eksport ulushi hamda xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni haqida aytib o'tilingan.

Kalit so'zlar: Jahon iqtisodiyoti, import, eksport, milliy iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, tashqi savdo, oltin, hamkor, model.

Mamlakatimizning iqtisodiyotni rivojlantirishda O'zbek modeli ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini, xalqimiz davlatchiligi tarixini, milliy diniy qadriyatlar va jahon tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgani qayd etildi. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi ahmiyati, qonun ustuvorligi kuchli ijtimoiy-siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish mashhur beshta tamoyilgatayangan ushbu model bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish strategiyasi sifatida istiqlol yillarda barcha amaliy ishlarning ishonchli

poydevori, taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Respublikamiz iqtisodiyotini samarali rivojlantirishda uning an'anaviy resurslarga asoslangan modelining muhim muqobil varianti sifatida texnika va texnologiyalar, ilm-fanning

oxirigi natijalari hamda yaxlit holda jamiyat hayotini uzlusiz yuksalishini ta'minlash maqsadida inson kapitalidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan innovatsion rivojlanish strategiyasiga o'tish alohida ahmiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalar innovatsion va integratsion ijtimoiy iqtisodiyotga – egiluvchan, dinamik, samarali, doimiy yangilanib turadigan, yangicha mazmun va ko'rinishga ega bo'lgan innovatsion rivojlanish strategiyasi mos keladi. Sanoat tarmoqlarini, xususan, zamonaviy tarmoqlarni innovatsion va integratsion rivojlantirishga ham tegishlidir.

Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini ta'minlanishi xozirgi kungdag'i yurtimizning barqaror rivojlantirishning asosiy dolzarb masalaridan biri. Milliy ijtimoiy va iqtisodiy izchil ravishda isloh qilish maqsadida tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, innovatsion va integratsion va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va innovatsion integratsion zamonaviy texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirishorqaligina ta'minlanishi mumkinligini janoxdagi ko'zga ko'ringan assosiy va yetakchi davlatlar tajribasi ko'rsatib turibdi. Jahon bozorida narxi

va sifati bo'yicha raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarur. Xozirda milliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va uning zamonaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayoni uning sub'ektlari iqtisodiy faoliyatining moddiy-texnika bazasini rivojlanish darajasiga bog'liqdir, chunki korxonalar resurs salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlash va barqarorlikka erishishning shart-sharoiti va asosiy omili hisoblanadi.

O'zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan uning bozor munosabatlariiga asoslangan milliy iqtisodiyoti borgan sari shakllana boshladi. Milliy iqtisodiyot- bu ma'lum bir davlat hududida tarixan tashkil topgan, bir-biri bilan maqsadi va mehnat taqsimoti bog'liq bo'lgan tarmoqlarning yig'indisidir. Yagona tizim sifatida milliy iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan munosabatlari, boshqaruv tizimi, umumiqtisodiy infrastrukturasi va mustaqil qonunchiligiga ega bo'lgan mustaqil davlatchilikni taqozo qiladi. Har bir yirik davlatlar kabi O'zbekiston ham jahon iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shmaqda. Jahon iqtisodiyotiga hissasini qo'shish deganda faqat eksport mahsulotlarini sotish emas, balki import mahsulotlari qabul qilish ham nazarda tutiladi. Albatta mamlakatda eksport hajmi import hajmidan ko'p bo'lishi uchun mamlakatning iqtisodiyotiga foyda keltiradi. Ammo boshqa tarafdan olib qaraganda mamlakat ichki mahsulotlarining haddan ziyod tashqi bozorga chiqishi davlatning ichki bozoriga salbiy ta'sir qilishi ham mumkin. Shuning uchun ko'pgina davlatlar iqtisodiyotida ba'zan import hajmi eksport hajmidan ko'proq bo'ladi , ba'zida esa teskari hodisa kuzatiladi. Tashqi savdo deganda esa import va eksport hajmlarining umumiyligi yig'indisi nazarda tutiladi.

Raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2023 yilning dastlabki uch oyida, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 14,8 mlrd dollarni tashkil qildi. Bunda Xitoy va Rossiyaning ulushi 31 foiz. Hisobot davrida 2,4 mlrd dollarlik oltin eksport qilingan bo'lsa, 151 mln dollarlik gaz import qilingan. Statistika agentligi O'zbekistonning 2023 yil yanvar-mart oylaridagi tashqi savdo aylanmasiga doir hisobotni e'lon qildi. Qayd etilishicha, hisobot davrida respublika tashqi savdo aylanmasi (TSA) 14,8 mlrd dollarga yetgan. Bunda eksport hajmi 5,7 mlrd dollarni, import hajmi esa 9,1 mlrd dollarni tashkil etgan. O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda eksport hajmi 2,9 foizga qisqargan, import hajmi 23,4 foizga oshgan. Tashqi savdo salbiy saldosi esa 3,4 mlrd dollarni tashkil etgan.

Birinchi chorakda xalqaro bozorlardagi vaziyat yomonlashuvi fonida hukumatning bir qator oziq-ovqat mahsulotlarini O'zbekiston hududiga olib kirishga qo'yilgan to'siqlarni yumshatishi import hajmi sezilarli darajada oshishiga o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lishi mumkin. 2023 yilda ham O'zbekistonning Xitoy va Rossiya bog'liqligi saqlanib qolmoqda. Xitoyning O'zbekiston bilan tovar ayirboshlash hajmi 2,3 mlrd dollarga yetgan va bu borada Rossiyanı ortda qoldirgan. Har ikkala mamlakatning umumiyligi TSAAdagi ulushi esa 31 foizni tashkil qilgan.

Hisobot davrida TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy (15,9 foiz) Rossiya (15,1 foiz) , Qozog'iston (7,5 foiz), Turkiya (5,6 foiz), Germaniya (4,6 foiz) Koreya (4,1foiz),

Turkmaniston(1,8 foiz) va Qirg'iziston (1,7 foiz) bilan qayd etilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor davlatdan faqatgina uchta mamlakat – Afg'oniston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan 17 ta davlat bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolgan.

2023 yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston eksportida yuqori ulushga ega bo'lgan hamkor top-10 davlat:

1. Rossiya – 736,2 mln;
2. Turkiya – 336,4 mln;
3. Xitoy – 334,1 mln;
4. Qozog'iston – 280 mln;
5. Afg'oniston – 178,2 mln;
6. Qirg'iziston – 166,2 mln;
7. Tojikiston – 117,7 mln;
8. Fransiya – 97,1 mln;
9. BAA – 47,1 mln;
10. Pokiston – 44,4 mln dollar.

O'zbekiston importida yuqori ulushga ega bo'lgan hamkor top-10 davlat:

1. Xitoy – 2 mlrd;
2. Rossiya – 1,6 mlrd;
3. Qozog'iston – 807 mln;
4. Germaniya – 655 mln;
5. Koreya – 594 mln;
6. Turkiya – 460 mln;
7. Turkmaniston – 218 mln;
8. Litva – 180 mln
9. Braziliya – 175 mln;
10. Shveytsariya – 143 mln dollar.

Birinchi chorakda 2,4 mlrd dollar qiymatidagi oltin sotilgan. Bu umumiy eksportning 42,4 foizini tashkil etadi. O'z navbatida oltin eksporti 2022 yilning mos davri bilan taqqoslanganda, 560 mln dollarga kamaygan. O'tgan yilda O'zbekiston eksportidagi oltin ulushi 50,8 foizgacha yetgan edi. Jahon bozorida oltin narxlari qimmatlashishi fonida O'zbekiston Markaziy banki yanvar-mart oylari davomida katta miqdorda qimmatbaho metall eksportini amalga oshirgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumot uchun, 2022 yilda 4,1 mlrd dollarlik, 2021 yilda 4,1 mlrd dollarlik, 2020 yilda 5,8 mlrd dollarlik, 2019 yilda esa 4,9 mlrd dollarlik oltin sotilgan.

Rasmiy statistikaga ko'ra, joriy yilning birinchi choragida O'zbekiston 151,2 mln dollarlik gaz import qildi, bu 2022 yilning mos davri bilan taqqoslaganda, 2,6 barobarga ko'p. O'z navbatida mazkur davrda gaz eksporti 70,4 foizga yoki 27,4 mln dollargacha qisqargan.

Shuningdek, 2023 yilning birinchi uch oyida 45,2 million dollarlik ko'mir import qilingan, bu o'tgan yilning birinchi choragiga nisbatan 61,7 foizga ko'p. Hisobot davrida

34,4 mln dollarlik elektr toki sotib olingan va 18,9 million dollar qiymatidagi elektr energiyasi eksport qilingan. Neft va neft mahsulotlarining eksporti 41,5 foizga oshib, 39,5 mln dollarni, importi esa 19,6 foizga kamayib 34,4 mln dollarni tashkil qilgan. E'tiborli jihatni 2023 yilning yanvar-mart oylari davomida O'zbekistonda tabiiy gaz qazib olish 9,6 foizga, elektr energiyasi ishlab chiqarish esa 5 foizga qisqargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z.Yo'ldoshev , X.Xalilova "Milliy va jahon iqtisodiyoti" (o'quv qo'llanma) Toshkent-2013
2. <http://www.uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati/o-zbekiston-va-xalqaro-tashkilotlar.html>
3. Sayfiddin Jo'rayev. O'zME . Birinchi jild . Toshkent-2000
4. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-jahon-iqtisodiyoti-trendlarida-otb>
- 5.<https://kun.uz/uz/news/2023/04/24/asosiy-savdo-hamkorlar-oltin-eksporti-va-gaz-importi-ozbekistonning-2023-yil-birinchi-chorakdagi-tashqi-savdosi>